XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 18-fevral VII-4-30-1-0-K/25 Andijon viloyati

Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining qaroriga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-287-sonli Farmoni ijrosini taʼminlash yuzasidan viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 13-yanvardagi 16-06295-sonli xatini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412- va 429-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-287-sonli Farmonining 2-band, a-kichik bandi, uchinchi xat boshida 5-toifadagi tumanlarda roʻyxatdan oʻtgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari (yirik soliq toʻlovchilar, doimiy muassasa, byudjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamgʻarmasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan koʻproq miqdorda boʻlgan yuridik shaxslar bundan mustasno) yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻini mazkur soliqlar boʻyicha hisoblangan summaning 50 foizi miqdoridagi soliq stavkalari boʻyicha toʻlashligi belgilanganligi maʼlumot uchun;

viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 13-yanvardagi 16-06295-sonli xati asos uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Andijon viloyatining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qarori:

a) 8-ilovasining 6- hamda 10-bandlari quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

6.	Boʻston tumani	0,65	31 460 000
10.	Ulugʻnor tumani	0,65	31 460 000

;

b) 10-ilovasining 4- hamda 8-bandlari quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

4.	Boʻston tumani	0,75	975 000
8.	Ulugʻnor tumani	0,75	975 000

.

3. Xalq deputatlari Boʻston hamda Ulugʻnor tuman Kengashlari ushbu oʻzgarishlardan kelib chiqib ilgari oʻzlari qabul qilgan qarorlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirish tavsiya etilsin.

4. Viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov) yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi stavkalarini tegishli hududlardagi soliq toʻlovchilarga yetkazilishini taʼminlasin.

5. Viloyat hokimining matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi R.Eshonov mazkur qaror rasmiy eʼlon qilinishi munosabati bilan ommaviy axborot vositalari hamda WWW.andijan.uz veb saytiga joylashtirilishini taʼminlasin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi (X.Omanov) hamda viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari D.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

AXUNOV UKTAMJON
XXX